

**Xalqaro Nordik Universiteti Iqtisodiyot va Pedagogika fakulteti**

**2-XT-23 guruhi talabalari bilan o‘tkazilgan yig‘ilish**

**BAYONNOMASI**

**2024-yil \_\_\_\_-Sentabr**

**Toshkent shahar**

**Qatnashdilar:** M.Z.Tojiboyeva 2-XT-23 guruhi talabalari

**Ishtirok etganlar soni:** \_\_ nafar talabalar

**KUN TARTIBI:**

**1. Universiteti “ODOB-AXLOQ KODEKSI” va “ICHKI TARTIB QOIDALARI”ning maqsad va vazifalarini talabalarga yetkazish to‘g‘risida.**

**Kun tartibidagi masala** bo‘yicha universitet guruh tyutori M.Z.Tojiboyeva yig‘ilishni kirish so‘zi bilan ochib, bugungi kun tartibidagi asosiy masala bo‘yicha yig‘ilish ishtirokchilariga ma’lumot berib o‘tdi. “ODOB-AXLOQ KODEKSI” va “Ichki tartib -qoidalari” bilan yig‘ilish qatnashchilarini tanishtirib o‘tdi. Unda asosan “Odob-axloq kodeksi” va “Ichki tartib -qoidalari” ning maqsad va vazifalari, prinsiplari, universitet rahbariyatini odob-axloqqa oid majburiyatlari va kasbiy faoliyatda manfaatlar toqnashuviga yo‘l qo‘ymaslikka oid tartiblar, xodim, talab va doktorantlarning o‘zaro munosabatlariga oid talablar, talaba va doktorantlarni yurish-turish va ularning rasmiy muloqotiga oid munosabatlari, talablar va doktorantlarning odob-axloqqa oid majburiyatlari, belgilangan cheklovlar va taqiqlarga rioya qilishlari(universitet hududida chekish va spirtli ichimliklar istemol qilish), binolarda yurish-turish qoidalariga amal qilish, talabalar universitet

hududida yo'lning o'ng tomonidan yurishlari, shuningdek, yo'lak va xollarda mobil aloqa vositalari orqali baland ovozda gaplashmasliklari kerakligi hamda xodim va talabalarni rag'batlantirish va chora ko'rish tartibi to'g'risida tushuntirib o'tdi.

Shu bilan birga universitetda g'ayriaxloqiy va nojo'ya xatti-harakatlarni sodir etishga yo'l qo'yilmasliklari va uyali aloqa vositalaridan foydalanish tartibiga rioya qilishlari hamda universitet hududida maxsus belgilangan joylardagina tamaki maxsulotlarini chekishga ruxsat berilganligini ta'kidlab, belgilanmagan joylarda tamaki maxsulotlarini chekkan talabalarga qonun doirasida chora ko'rish bo'yich ogohlantirib o'tdi.

Undan tashqari mazkur, universitet Odob-axloq kodeksi va "Ichki tartib -qoidalari" universitetning korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi, talabalar tomonidan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etishga og'dirish maqsadida murojaat qilish to'g'risida nizom, universitet Ustavi, universitet Kengashi qarori, rektor buyruqlari, tarkibiy bo'linmalar to'g'risidagi nizomlar va boshqa lokal normativ hujjatlarda belgilangan talablarni buzganligi uchun qonun doirasida choralar ko'rilish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Yig'ilishda kun tartibidagi ko'rilgan masalalar yuzasidan kelib chiqib,

### **QAROR QILINDI:**

1. 2-XT-23 guruh talabalariga universiteti "ODOB-AXLOQ KODEKSI" va "ICHKI TARTIB QOIDALARI"ga to'liq rioya qilinsin.
2. Universitetda belgilangan tartibda tanlagan kasbiga xos tarzda kiyinishi, tashqi qiyofasi va kiyimlari ozoda, pokiza bo'lishi hamda universitet xududida belgilanmagan joylarda tamaki maxsulotlarini chekish taqiqlanganligi ko'rsatib o'tilsin.

3. Talabalarning ushbu “ODOB-AXLOQ KODEKSI” va “ICHKI TARTIB QOIDALARI”ga rioya qilganda belgilangan tartibda rag‘batlantirish hamda holatlar buzilgan taqdirda jazo choralari qo‘llanishi belgilab qo‘yilsin.

**Tyutor**

**M.Z.Tojiboyeva**

